



**“KO‘HITANG BOTANIK GEOGRAFIK RAYON FLORASI TARKIBIDAGI  
CARYOPHYLLACEAE OILASINING AREAL TIPLARI BO‘YICHA  
TAHLILI”**

**Ibragimov Akram Javliyevich., Murodullayev Nurali Zokir o‘g‘li.,**

Termiz Davlat universiteti Botanika kafedrası dotsenti. Termiz Davlat universiteti  
talabasi. Termiz, O‘zbekiston.

[akram\\_i@bk.ru](mailto:akram_i@bk.ru)

[nurali.murodullayev0886@gmail.com](mailto:nurali.murodullayev0886@gmail.com)

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada Ko‘hitang botanik-geografik rayon florası tarkibidagi Caryophyllaceae (Chinniguldoshlar) oilasiga mansub o‘simliklar areallari tiplari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida mazkur oilaga mansub tur va jinslarning hududiy tarqalishi, ularning geografik areallari va fitogeografik xususiyatlari o‘rganildi. Tahlil natijalari asosida Caryophyllaceae oilasi vakillari asosan Markaziy Osiyo va G‘arbiy Osiyo elementlariga mansubligi aniqlandi. Shuningdek, endemizm darajasi, ekologik va bioxilma-xillik ko‘rsatkichlari ham ko‘rib chiqildi. Ushbu ish Ko‘hitang floristik rayonidagi fitogeografik zonalarning shakllanishi va o‘simliklar areallari evolyutsiyasini chuqurroq tushunishga hissa qo‘shadi.

**Аннотация**

В статье анализируются типы ареалов растений семейства Гвоздичные (Caryophyllaceae) во флоре Кохитангского ботанико-географического района. В ходе исследования изучено территориальное распространение видов и родов, относящихся к данному семейству, их ареалы и фитогеографические особенности. По результатам анализа установлено, что представители семейства Caryophyllaceae в основном относятся к эйрано-туронскому, центральноазиатскому и переднеазиатскому элементам. Также учитывались уровень эндемизма, экологические показатели и показатели биоразнообразия. Данная работа способствует более глубокому пониманию формирования фитогеографических зон и эволюции ареалов растений во флористическом регионе Кохитан.

**Abstract.**

This article analyzes the types of plant ranges belonging to the Caryophyllaceae family in the flora of the Kohitan botanical-geographic region. During the study, the territorial distribution of species and genera belonging to this family, their geographical ranges and phytogeographic characteristics were studied. Based on the results of the





analysis, it was determined that representatives of the Caryophyllaceae family mainly belong to the Eyrano-Turonian, Central Asian and West Asian elements. The level of endemism, ecological and biodiversity indicators were also considered. This work contributes to a deeper understanding of the formation of phytogeographic zones and the evolution of plant ranges in the Kohitan floristic region.

**Kalit soʻzlar.** Koʻhitang, flora, Caryophyllaceae, oila, tur, areal, togʻ, polimorf, takson, poʻya, barg.

**Ключевые слова.** Растение, флора, Caryophyllaceae, семейство, вид, область, гора, полиморф, таксон, стебель, лист.

**Key words.** Plant, flora, Caryophyllaceae, family, species, range, mountain, polymorph, taxon, stem, leaf.

Oʻrta Osiyoning togʻli hududlari floralariidagi turlarning areal tiplari boʻyicha taqsimlanishini R.V. Kamelin [38] taklif etgan tasnif asosida amalga oshirish qabul qilingan. Ayni paytda turli tadqiqotchilar oʻrganilayotgan floraning joylashgan oʻrni, ishning maqsad va vazifalari, turlarning tarkibiga koʻra ayrim oʻzgartirishlar kiritishadi. Xususan, L.S. Krasovskaya va I.G. Levichevlar [45] areal tiplari kategoriyalarining berilishida ierarxiya prinsipiga amal qilish lozimligini koʻrsatishadi, yaʼni dastlabki tip hajmi jihatdan keyin keladigan tip tirkibiga kirish kerakligini keltirishadi. R.V. Kamelinning [38] fikriga koʻra esa areal tiplarining ajratilishida tur arealining umumiy konfiguratsiyasidan kelib chiqish maʼqulroq va mavjud tasniflarni turlarning ekologik xarakteristikasi, bir-biriga boʻysunish tizimini qabul qilish orqali murakkablashtirmaslik lozim. Shuning uchun, Surxon qoʻriqxonasi florasining geografik strukturasi Oʻrta Osiyoning togʻli hududlari uchun qulay boʻlgan va umum eʼtirof etilgan tavsif boʻyicha amalga oshirildi.

Biz qoʻriqxonada uchrovchi turlarning tabiiy tarqalish chegarasini oʻrganish asosida 21 ta areal tiplariga ajratdik.

1. Koʻhitang tipi – bu tipga faqat Koʻhitang togʻ tizmasining sharqiy yonbagʻrida joylashgan Surxon davlat qoʻriqxonasining florasida tarkibidagi 1 ta tur endem oʻsimliklar kiradi: *Silene nataliae* F. O. Khass. et I.I. Malzev, boshqalar.

2. Janubiy pomiroloy tipi – janubiy Tojikiston va Oʻzbekiston togʻ tizmalarini (Koʻhitang tizmasidan Hazrati-Imomaskarid togʻigacha) qamrab oladi. Bu tip doirasida 1 ta tur mavjud: *Dianthus baldshuanicus* Lincz., boshqalar.

3. Janubi-gʻarbiy pomiroloy – Turkiston, Zarafshon, gʻarbiy va Janubi-Gʻarbiy Hisor tizmasidan Darvozgacha boʻlgan togʻ tizmalarini qamrab oladi hamda tarkibiga





2 tur kiritiladi: *Silene plurifolia* Schischk., *Kughitangia popovii* (Preobr.) Ovcz. TASH va boshqalar.

4. Pomiroloy tipi – butun Pomir-Oloyni (Turkiston, Oloyning sharqiy qismisiz, Zarafshon, Hisor, Qorategin, Petr I, Darvoz, Fanlar akademiyasi tizmatog‘lari) va G‘arbiy Pomirni (Badaxshon) qamrab oladi. Bu tip 3 turni o‘z ichiga oladi. *Buffonia oliveriana* Ser. TASH, *Dianthus tetralepis* Nevski herb. *Silene guntensis* B. Fedtsch. va boshqalar.

5. K G‘arbiy tiyonshon-pomiroloy tipi – arealning bu tipi G‘arbiy Tiyonshon (Chu-Iliy tog‘i, Qoratog‘, Qirg‘iziston tizmasining g‘arbiy qismidan Qurama va Farg‘ona tizmasigacha) va Pomir-Oloyni qamrab oladi. Bu tipda 5 tur mavjud: *Dianthus seravschanicus* Schischk., *Silene saravschanica* Regel et Schmalh., *Silene turkestanica* Regel (= *Melandrium turkestanicum*) TASH., *Silene nevkii* Schischk., *Silene kuschakewiczii* Regel et Schmalh. herb., va boshqalar kiradi.

6. Tog‘li o‘rtaosiyo tipi – bu tip O‘rta Osiyo provinsiyasi chegarasida bo‘lib, G‘arbiy Tiyonshon va Pomir-Oloyni (Sharqiy Pomirdan tashqari) qamrab oladi. Arealning bu tipi 1 turni o‘z ichiga oladi: *Silene tachtensis* Franch. herb., va boshqalar.

7. Kopetdog‘-tog‘li o‘rtaosiyo tipi – Tog‘li o‘rtaosiyo va tog‘li Turkmaniston chegarasida bo‘lib, Shimoliy Afg‘oniston va Sharqiy Eron hamda ba‘zan Balxash bo‘yigacha chiqadi. Areal tipi doirasiga 1 tur kiradi: *Agrostemma githago* L., *Minuartia regeliana* (Trautv.) Mattf. va boshqalar.

8. Tarbag‘atoy-tog‘li o‘rtaosiyo tipi – Tog‘li o‘rtaosiyo, Jung‘or Olatovi, Tarbag‘atoy, Qulja va Sinszyan chegarasini qamrab oladi. Tarkibida 1 tur mavjud: *Tytthostemma alsinoides* (Boiss. et Buhse) Nevski., va boshqalar.

9. Xoroson-tog‘li o‘rtaosiyo tipi – bu areal tipi Xoroson-Kopetdog‘dan boshlab O‘rta Osiyo tog‘ tizmalarigacha bo‘lgan hududlarni qamrab oladi. Bu tipga 1 ta tur kiradi: *Queria hispanica* L.\* herb.

10. Oltoy-tog‘li o‘rtaosiyo – Tiyonshon, Pomir-Oloy, Jung‘or Olatog‘i, Tarbag‘atoy hamda Oltoy, Parapamiz, Sinszyan, Qulja va Qashqargacha bo‘lgan hududlarni o‘z ichiga oladi. Bu tipga 1 ta tur kiradi: *Dichoglottis alsinoides* (Bunge) Walp. (= *Gypsophila alsinoides*) va boshqalar.

11. Eron tipi – Sharqiy Anatóliyadan (Turkiya) Tiyonshon va G‘arbiy Pomirgacha (Badaxshon) bo‘lgan hududlar kiradi. Arealning bu tipiga 1 ta tur o‘simliklar kiradi: *Lepyrodiclis stellarioides* Schrenk. herb. va boshqalar.





12. G'arbiyiyonshon-pomiroloy tipi – arealning bu tipi G'arbiy Tiyonshon (Chu-Iliy tog'i, Qoratorog', Qirg'iziston tizmasining g'arbiy qismidan Qurama va Farg'ona tizmasigacha) va Pomir-Oloyini qamrab oladi. Bu tipda 1ta tur mavjud: *Eremogone griffithii* (Boiss.) Ikonn. (=Arenaria griffithii) herb. va boshqalar.

13. Sharqiy-qadimiy o'rtayer tipi – Falastin va Kichik Osiyodan G'arbiy Himoloy va Oltoygacha bo'lib, Suriya, Eron, Kavkazorti qisman Tibet hamda Sinszyan hududlarini qamrab oladi. Arealning bu tipida 5 ta tur mavjud: *Cerastium dichotomum* L. Herb., *Lepyrodiclis holosteoides* (CAM.) Fenzl. herb., *Minuartia meyeri* (Boiss.) Bornm. herb., *Pleconax coniflora* (Ness. ex Otth.) Šourkova (=Silene coniflora) TASH., *Pleconax conoidea* (L.) Šourkova (=Silene conoidea L.) herb., va boshqalar.

14. Qadimiy o'rtayer tipi – Ispaniya va Marokkidan G'arbiy Himoloygacha chiqadi. G'arbiy Xitoy va G'arbiy Mo'g'iliston hamda qisman Markaziy Yevropagacha bo'lgan hududlar kiradi. Tarkibida 1 ta tur jamlangan: *Cerastium inflatum* Link. herb. va boshqalar.

15. Pontik-qadimiy o'rtayer tipi – Qadimiy O'rtayer va Shimoliy Qoradengizoldi hududlari, qisman Markaziy Yevropaga ham chiqadi. Tarkibida 16 tur mavjud: *Velezia rigida* L. herb. va boshqalar.

16. Tarbag'atoy-tog'lio'rtaosiyo tipi – Tog'lio'rtaosiyo, Jung'or Olatovi, Tarbag'atoy, Qulja va Sinszyan chegarasini qamrab oladi. Tarkibida 2 tur (1,48%) mavjud: *Acanthophyllum pungens* (Bunge) Boiss., *Stellaria neglecta* Weihe va бoшқaлaр.

17. Yevro-kavkaz-o'rtaosiyo dizyunktiv tipi – arealning bu tipi o'z ichiga Palearktika orollari va Qadimiy O'rtayer chegaralarini qamrab oladi. Tarkibida 1ta tur : *Holosteum umbellatum* L. mavjud.

18. Yevropa-qadimiy o'rtayer tipi – Qadimiy O'rtayer, Sibirning janubiy qismi, Yevropadan Skandivaniyagacha bo'lgan hududlarni qamrab oladi. Bu tipga 2 ta tur kiradi: *Holosteum polygamum* C. Koch. herb., *Pleconax conica* (L.) Šourkova (=Silene conica L.) herb va boshqalar.

19. Golarktika-qadimiy o'rtayer tipi – bu tip o'z ichiga Boreal, O'rtayer va Sharqiy Osiyo viloyatlarining janubida keng tarqalgan 1 ta turni qamrab oladi: *Arenaria leptoclada* Guss.





20. Golarktika tipi – butun Shimoliy yarim sharning quruqlik qismini qamrab oladi. Bu tip tarkibiga 2 ta tur kiradi: *Arenaria serpyllifolia* L. herb., *Stellaria media* (L.) Vill. herb. va boshqalar.

21. Plyuriregional tip – arealning bu tipi o‘z ichiga kamida ikkitadan kam bo‘lmagan floristik olamda tarqalgan turlarni qamrab oladi. Tarkibida 1 ta tur mavjud: *Vaccaria pyramidata* Medic. va boshqalar.

<b>№</b>	<b>Turkum</b>	<b>Turlar</b>	<b>Areal tiplari</b>
1.	<i>Acanthophyllum</i>	<i>Acanthophyllum pungens</i> (Bunge) Boiss. herb.	16
2.	<i>Agrostemma</i>	<i>Agrostemma githago</i> L.	7
3.	<i>Allochrysa</i>	<i>Allochrysa gypsophiloides</i> (Regel) Schischk. herb.	12
4.	<i>Arenaria</i>	<i>Arenaria leptoclada</i> Guss.	19
5.	<i>Arenaria</i>	<i>Arenaria serpyllifolia</i> L. herb.	20
6.	<i>Buffonia</i>	<i>Buffonia oliveriana</i> Ser. TASH	4
7.	<i>Cerastium</i>	<i>Cerastium dichotomum</i> L. herb	13
8.	<i>Cerastium</i>	<i>Cerastium inflatum</i> Link. herb.	14
9.	<i>Dianthus</i>	<i>Dianthus baldshuanicus</i> Lincz. herb.	2
10.	<i>Dianthus</i>	<i>Dianthus seravschanicus</i> Schischk.	5
11.	<i>Dianthus</i>	<i>Dianthus tetralepis</i> Nevski herb.	4
12.	<i>Dichoglottis</i>	<i>Dichoglottis alsinoides</i> (Bunge) Walp. (= <i>Gypsophila alsinoides</i> )	10
13.	<i>Eremogone</i>	<i>Eremogone griffithii</i> (Boiss.) Ikonn. (= <i>Arenaria griffithii</i> ) herb.	12
14.	<i>Holosteum</i>	<i>Holosteum polygamum</i> C. Koch. herb.	18
15.	<i>Holosteum</i>	<i>Holosteum umbellatum</i> L.	17
16.	<i>Kughitangia</i>	<i>Kughitangia popovii</i> (Preobr.) Ovcz. TASH	3
17.	<i>Lepyrodiclis</i>	<i>Lepyrodiclis holosteoides</i> (CAM.) Fenzl. herb.	13
18.	<i>Lepyrodiclis</i>	<i>Lepyrodiclis stellarioides</i> Schrenk. herb.	11
19.	<i>Minuartia</i>	<i>Minuartia meyeri</i> (Boiss.) Bornm. herb.	13
20.	<i>Minuartia</i>	<i>Minuartia regeliana</i> (Trautv.) Mattf.	7
21.	<i>Pleconax</i>	<i>Pleconax conica</i> (L.) Šourkova (= <i>Silene conica</i> L.) herb	18





22.	Pleconax	Pleconax coniflora (Ness. ex Otth.) Šourkova (=Silene coniflora) TASH	13
23.	Pleconax	Pleconax conoidea (L.) Šourkova (=Silene conoidea L.) herb.	13
24.	Queria	Queria hispanica L.* herb.	9
25.	Silene	Silene guntensis B. Fedtsch. herb.	
26.	Silene	Silene kuschakewiczi Regel et Schmalh. herb.	4
27.	Silene	Silene nataliae F.O. Khass. et I.I. Malzev BotURN	1
28.	Silene	Silene nevskii Schischk.	5
29.	Silene	Silene plurifolia Schischk. herb.	3
30.	Silene	Silene saravschanica Regel et Schmalh. TASH	5
31.	Silene	Silene tachtensis Franch. herb.	6
32.	Silene	Silene turkestanica Regel (=Melandrium turkestanicum)	5
33.	Stellaria	Stellaria media (L.) Vill.herb.	20
34.	Stellaria	Stellaria neglecta Weihe.herb.	16
35.	Tytthostemma	Tytthostemma alsinoides (Boiss. et Buhse) Nevski	8
36.	Vaccaria	Vaccaria pyramidata Medic.	21
37.	Velezia	Velezia rigida L.herb.	15

Shunday qilib areal tiplarining tahlili natijasi shuni ko'rsatadiki, Surxon qo'riqxonasining florasida Tog'li O'rta Osiyo floralariga xos xususiyatlarga ega hamda tarkibida Ko'hitang tizmasining endem turlari ko'pligi bilan ajralib turadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Alexin V.V. Geografiya rasteniy. – M.: Sov. kniga, 1938. – 104 s.
2. An E.S., Botman K.S. Zapovednye territorii Uzbekistana.– Tashkent: Uzbekistan, 1980. – S.–35–38.
3. Ibragimov A.J. Endemizm flori xrebtu Kugitang // Bioraznoobrazie: problemi i perspektivi soxraneniya: Materiali mejd. nauch. konf. 13-16-maya 2008 g. – Penza, 2008. – S. 217-219.





4. Ibragimov A. J. Surxon davlat qo‘riqxonasi florasining daraxt va butalari // O‘zbekistonda cho‘llanishning yekologik muammolari: Xalqaro ilmiy konferensiya materiallari. 25-26 sentabr 2008-y. – Tashkent, 2008. – B. 53-55.
5. Kamelin R.V. Vidovoy sostav rastitelnogo pokrova ushelya r. Varzob. Vysshie rasteniya // Flora i rastitelnost ushelya reki Varzob. – L.: Nauka, 1971. – S. 151-238.
6. Ro‘ziev A.N. Surxondaryo viloyati. – Toshkent: Jayxun, 1996. – 30 b.
7. Flora Uzbekistana. V 6-i t. – Tashkent: Izd. AN UzSSR, 1941-1962.

